



YOSHLAR SIYOSATI VA ULAR UCHUN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR: YANGI O'ZBEKISTONNING YANGI AVLOD KADRLARI

Samatova Nozima Abdixalim qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

samatovanozima112@gmail.com

(+99897)6340424

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar siyosatini modernizatsiya qilish jarayonlari va ular uchun yaratilayotgan keng ko'lamli imkoniyatlarning yangi avlod kadrlarini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim tizimining bosqichma-bosqich yangilanishi, raqamli va innovatsion ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi tashabbuslar hamda ularni milliy taraqqiyotning faol ishtirokchisiga aylantirish mexanizmlari o'rganiladi. Maqola Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishlarini ochib berar ekan, yurt kelajagi uchun yuqori malakali, intellektual salohiyatga ega kadrlarni tayyorlash jarayoni davlat rivojining asosiy omillaridan biri ekani ilmiy asosda ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ta'lim islohotlari, yoshlar imkoniyatlari, ijtimoiy faollik, taraqqiyot strategiyasi, raqobatbardosh avlod, kadrlar tayyorlash, innovatsion rivojlanish.



**TITLE: YOUTH POLICY AND THE OPPORTUNITIES
CREATED FOR THEM: THE NEW GENERATION OF SPECIALISTS
IN NEW UZBEKISTAN**

Abstract

This article analyzes the processes of modernizing youth policy in the context of New Uzbekistan and the significance of the wide-ranging opportunities being created for young people in shaping a new generation of specialists. The study examines the gradual renewal of the education system, programs aimed at developing digital and innovative skills, initiatives that enhance youth social activity, and mechanisms that turn them into active participants in national development. While revealing the priority areas of youth policy defined in the Development Strategy of New Uzbekistan, the article scientifically demonstrates that training highly qualified and intellectually capable personnel is one of the key factors in the country's progress.

Key words: New Uzbekistan, educational reforms, youth opportunities, social activity, development strategy, competitive generation, personnel training, innovative development.

Kirish

Yoshlar — har qanday davlatning kelajagi va taraqqiyotining asosiy resursidir. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatini modernizatsiya qilish, ularning salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish va zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim tizimidagi yangilanishlar, innovatsion va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar yoshlarning ijtimoiy



faolligini oshirishga, ularni milliy taraqqiyotning faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi. Yosh avlodning sog‘lom o‘sishi, sifatli ta’lim olishi va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishini ta’minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “besh muhim tashabbus”ni joriy etish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Asosiy qism:

1. Yoshlar siyosatining ahamiyati va maqsadlari

Hozirgi kunda yoshlarimizga yaratilayotgan imkoniyatlar son sanoqsizdir. Nafaqat ta’lim sohasida balki sport, hunarmandchilik, madaniyat, turizm va boshqa sohalarda ham turli xil yangiliklar va o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. So‘nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

O‘zbekistonda 30-iyun — «Yoshlar kuni» deb e’lon qilindi. Turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag‘batlantirib borish maqsadida «Mard o‘g‘lon» davlat mukofoti va «Kelajak bunyodkori» medali ta’sis etildi. Bu mukofot va medallar yoshlarning iqtidorini, tashabbusini, jamiyatdagi faol ishtirokini rag‘batlantirish va namuna ko‘rsatish uchun joriy qilingan.

“Yoshlar kuni” tadbirlari davomida — ayniqsa 30-iyun kuni — davlat tomonidan faol, ishlab topgan, jamiyatga foyda keltirgan yoshlar taqdirlanadi.



Taqdirlash marosimlari davlat rahbari tomonidan o'tkaziladi, bu orqali yoshlar mehnati davlat tomonidan qadrlanadi va ularning keyingi faolligiga rag'bat beriladi.

2. Ta'lim tizimidagi islohotlar va yangi avlod kadrlarini tayyorlash

Prezidentimiz aytganlaridek - taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtda prezidentimiz mamlakatni rivojlantirish uchun faqatgina ta'limga pul sarflamoqdalar. Chunki yoshlar kelajak bunyodkori hamda davlat rivoji uchun ular kata hissa qo'sha olishadi.

UNICEF - Ushbu dastur so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan olib borilgan erta ta'lim sohasidagi yutuqlarni qo'llab-quvvatlaydi. Natijada, 2017-yilda 30 foizni tashkil qilgan maktabgacha ta'lim qamrovi 2025-yilda 77 foizga yetdi. Shuningdek, ish UNICEFning erta ta'lim sohasidagi tarixiy qo'llab-quvvatlash tajribasiga asoslanadi. Bu esa erta ta'lim rivojlanish standartlarini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yaratish va o'qituvchilarni professional rivojlantirishda innovatsion aralash yondashuvlarni joriy etishni o'z ichiga oladi [2].

3. Yoshlarni ijtimoiy faolligi va davlat taraqqiyotidagi roli

Yoshlarning ijtimoiy faolligi — bu ularning jamiyat, siyosat va iqtisodiyot sohalarida faol ishtirok etishi, tashabbus ko'rsatishi va qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilinishi demakdir.

Shu faoliyatga quyidagilar kiradi:





Fuqarolik jamiyatidagi faol ishtirok (nodavlat tashkilotlar, jamoat fondlari, ko'ngillilik)

Siyosiy jarayonlarda qatnashish (saylovlar, yoshlar kengashlari, parlament yoki mahalliy kengash faoliyati)

Ijtimoiy tashabbuslar (ekologiya, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport tadbirlari)

Davlat taraqqiyotidagi roli

Yoshlar ijtimoiy faolligi davlat taraqqiyotiga quyidagi yo'llar bilan hissa qo'shadi:

Inson kapitalini rivojlantirish — faol va bilimli yoshlar iqtisodiyot va jamiyatning asosiy resursidir.

Innovatsiyalar va kreativ g'oyalar — yoshlar yangi texnologiyalar va innovatsion loyihalarni yaratishda faol bo'lishadi.

Fuqarolik jamiyatini mustahkamlash — yoshlar faol bo'lsa, ijtimoiy nazorat va fuqarolik mas'uliyati oshadi.

Siyosiy barqarorlik — yoshlarning siyosiy faolligi qonuniy va demokratik jarayonlarni mustahkamlaydi.

Madaniyat va qadriyatlarni rivojlantirish — yoshlar milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda ishtirok etadi [3]. Yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan O'zbekistonda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilib, 1991 yil 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishiva uning 2016 yil 14 sentyabrda yangi tahrirda



tasdiqlanishi mamlakatimizda yoshlar siyosatiga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlikni yangicha bosqichga ko'tarishi bilan muhim ahamiyatga ega [4].

Xulosa

Yoshlar — har bir jamiyat va davlatning eng muhim resursidir. Ularning bilim, malaka, ijodiy va tashabbuskorlik salohiyati davlat taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Yoshlarning ijtimoiy faolligi jamiyatda fuqarolik madaniyatini oshirish, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish va innovatsion tashabbuslarni ilgari surishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston misolida yoshlar siyosati, ularni rag'batlantirish, ijtimoiy va siyosiy imkoniyatlarni yaratish, shuningdek, ta'lim va kadrlar tayyorlashdagi islohotlar — barcha sohalarda yoshlarni faol ishtirok etishga undaydi. Mukofotlar, maxsus dasturlar va yoshlar markazlari orqali ularning salohiyati rivojlantiriladi va jamiyatga foydali tarzda yo'naltiriladi.

Natijada, yoshlarning faol ishtiroki va ijtimoiy faolligi davlat taraqqiyoti va jamiyat barqarorligining mustahkam poydevori hisoblanadi. Shu sababli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning imkoniyatlarini kengaytirish va faolligini rag'batlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son





2. Advancing quality education reform in Uzbekistan through the establishment of new Regional Centers of Pedagogical Excellence for preschool teachers
3. President.uz — yoshlar siyosati, mukofotlar va strategiyasidan
 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.07.2017 yildagi PF-5106-son.

